

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA AYOL TIMSOLI,  
ULARDA AYOLGA XOS JIHATLARNING IFODALANISHI

**Mubinova Aziza**

*Buxoro davlat universitetining  
Pedagogika Instituti O'zbek tili va adabiyoti  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollaridan ayol obrazi qatnashgan bir nechta maqol tahlil qilindi. Unda o'zbek ayollarning iffati, or-nomusi, nazokati badiiy jihatdan tasviri yaratib berilgan.

**Annotation:** The article analyzes several proverbs with the image of women from the Uzbek folk.

**Kalit so'zlar:** maqol, saxiylik, hayo, nafs, maslahat ibratli so'z, xarakter

**Keywords:** proverb, generosity, modesty, lust, beauty, advice, example, character.

Maqol – xalq og'zaki ijodining eng qadimgi namunalaridan biridir.

Maqolda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo'lib, unda ibratli fikr aytiladi. Bu fikr rad etib bo'lmaydigan hukm tarzida keltiriladi.

"Maqol" so'zi arabchadan olingan bo'lib, "so'z" degan ma'noni bildiradi. Maqol shunday janrki, unda ota-bobolarimizning necha asrlar davomida ko'rgan -kechirgan voqealar asosida chiqargan xulosalari o'z aksini topgan bo'ladi. Maqollar bu bizning beqiyos, bitmas va tunganmas ma'naviy merosimizdir. Bu ma'naviy meros asrlar davomida rivojlanib, sayqallanib kelmoqda. Xalqimiz orasida bejiz: "So'z ko'rki maqol", – deyishmagan. Maqol Insonning hayot yo'llarida duch keladigan to'siqlarni yengib o'tishida, uni sabr va chidamli bo'lishga da'vat etadigan ibratli so'zdir.

Maqollar turli mavzularda bo'lishi mumkin. Masalan: yaxshilik va yomonlik, quvonch va hasrat, g'am, shukronalik, mehr-muruvvat, ahillik, noshukrlik, ota-ona, tabit va jamiyat, yil fasllari, qarindosh urug'lar haqida va boshqa mavzularda bo'ladi. Bularning barchasi zamirida tarixiy tajriba, asrlar davomida to'plangan ota-bobolarimizning xulosalari jam bo'lgan.

Jamiyatda har bir shaxsning o'ziga xos o'rni bor. Har bir insonning o'zi bajarishi zarur bo'lgan burch va vazifalari bor. Erkakning ham, ayolning ham o'z mas'uliyati va burchi bor. Shu o'rinda men ayollar haqidagi maqollardan bir nechtasini tahlil qilib bermoqchiman. Bu jarayonda biz ularning o'ziga xos xususiyatlari, xulq-atvorlarini yaqindan bilishga harakat qilamiz.

1. Ko'rpangga qarab oyoq uzat.
2. Lachakpo'shning ket ochiq.
3. Hayosiz ayol-tuzsiz ovqat.
4. Mani nafsım balodur, yonar o'tga soladur.

Dastlabki maqoldan shunday xulosa kelib chiqadiki, inson har doim bir ishni boshlayaptimi, albatta, uni qilishdan avval o'ylashi kerak, shu ishni bajarishimga kuchim,qilayotgan harakatim bilan erisha olamanmi deb.Bu maqol ko'proq ayollarga tegishli.Buni birgina misolimizda ko'rib o'tamiz.Ayollar ko'pincha zargarlik buyumlariga juda qiziqishadi. To'y-hashamlarda zeb-ziynat buyumlari bilan ziynatlanib borishadi. Odatda, bozorga borganlarida ham zeb-ziynat buyumlaridan eng qimmatini va sifatlisini olishga harakat qilishadi.Bilamizki,bu buyumlarning narxi qimmat turadi. Natijada o'sha ayol u buyumni xarid qilolmaydi, chunki bunga uning mablag'i yetmasligi mumkin,balki xarid ham qilar.Bu maqoldan yaqqol ko'rishimiz mumkinki,odam har qanday vaziyatda o'zini qanday tutishni bilishi kerak. Oilaviy sharoitdan, ahvolimizdan kelib chiqib,zarur ishni qilishimiz kerak, foydasiz ishlarni qilmasligimiz kerak. Xalqimiz bejiz:"Yetti o'lchab bir kes" -,deb aytmagan. Biz ayollar har doim boriga shukur qilib , yo'g'iga qanoat qilib yashashimiz kerak.Ayol shunday shaxski ,u har qanday vaziyatga moslasha oladi ,ko'nikadi va har qanday qiyin vaziyat bo'lsin undan chiqib keta oladi. Bu hayotda boriga shukur qilib ,yo'g'iga sabr-toqat qilib yashash har birimizning oliy burchimizdir.

Bu maqoldan yana shuni bilib olish mumkinki,inson hayotda har doim bir xil sharoitda yashamaydi.Qachondir u o'ziga to'q ,hamma narsasi yetarli bo'lishi mumkin ,yana qachondir esa u hayotda qiynaladi ,hayot sinovlari va mashaqqatlarini yengib o'tishga ojizlik qiladi ,yaqinda turgan narsalarga erishishga harakat qiladi ,ammo erisha olmaydi.Shu o'rinda yana bir dalil bilan o'z fikrimni isbot qilmoqchiman.

Bugungi kunda yurtimizda,to'y maroslarining qanchalik hashamat va dabdaba bilan o'tayotganligi,bir kunlik bu marosim uchun qanchadan-qancha isrofgarchiliklar qilinayotganligi,to'ydan so'ng ota-onanning birovlardan to'yini o'tkazish uchun olgan qarzlarning to'layotganligida ham ko'rsak bo'ladi.Bir kunlik bayram shodiyonasi uchun odamlar yillar davomida pul yig'adilar,ammo o'sha to'plagan mablag'lari ham kamlik qiladi ularga.Masalan:kelinga sarpoyig'adilar,unga xilma-xil kiyim-kechaklar tikdiradilar.Birovlardan o'tish uchun o'z tantanalarini ulardan ziyoda qilishga harakat qiladilar.Bu harakatlari esa isrofgarchilikdan ,noshukurlikdan boshqa narsa emas.Bu jihatlarning ko'pisi ayollarda mujassamlashgan bo'ladi.Bu odatlarning barchasi salbiy xislatdir.Bu maqolda har bir inson qanday vaziyatga bo'lishidan qat'iy nazar unda shukronalik hissi bo'lishi kerak.

Ikkinchi maqol: Lachakpo'shning keti ochiq.

“Lachakpo'sh” so'zining ma'nosi shuki, lachak – bu bosh uzra ikki chakkadan ko'krakka qadar yopilib turadigan mato.Bugungi kunda bu so'zning sinonimi sifatida hijob istilohini qo'llasak bo'ladi.Bu maqol ham ayollarga qaratilgan. Ko'chada turli xil odamlar bo'ladi.Birini ko'rsak havas qilamiz,yana birini ko'rsak biz u odamga iloji boricha yaqinlashmaslikka, undan uzoqroq bo'lishga harakat qilamiz. Ko'chada soliha ayollarni ko'rib,odamlarning ko'zi quvonadi.Bunday ayollar mehribon va yaxshiliklarini xush ko'rguvchi, qo'lidan kelguncha muhtoj insonga yordam berishga

harakat qiladi. Masalan, bir bola ko'chada yig'lab o'tirgan bo'lsa uni ovutishga harakat qilishadi. Lekin shunday ayollar ham borki, ularning qilgan amallari ,aytgan so'zlariga mos kelmaydi. Boshqacha qilib aytganda, tili boshqa-yu dili boshqa. Ular ozlarini birovga mehribondek, birovga yaxshilik qiladigandek, muhtojlarga yordam beradigandek qilib qilib ko'rsatishadi, birovlarga ko'z-ko'z qilib muhtojlarga hadyalar berishadi, shunday qilib "saxiy" degan nomga ega bo'lishadi. Saxiylik bu muhtojlarga yordam qo'lini cho'zishdir, o'zini ko'z-ko'z qilish emas.

Shunga ko'ra, ayollarni 2toifaga bo'lsak bo'ladi:

1-toifa: saxiy ayol

2-toifa: baxil ayol

Saxiy ayol har doim odamlarga yaxshilik qilishga, o'zidan bor narsasini birovga berishga harakat qiladi.

Yordam so'ragan insonga ko'mak beradi, muhtojlarga beminnat mehr qo'lini cho'zadi. Bunday ayollar jamiyatimiz tayanchi va suyanchidir. Bu dunyodan odamdan faqat va faqat yaxshilik degan ulug' nom qoladi.

Ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiy umrining so'nggi lahzalarida yozgan "Mahbub-ul qulub"(Ko'ngillarning sevgani)" asarida shunday deydi: "Bitta kulchani o'zi yemay birovga bergan odam axiy, bitta kulchani yarmini yeb, yarmini ehtiyojmand odamga bergan odam saxiydir".

Saxiy inson hech qachon birovga yomonlik, zulmni ravo ko'rmaydi. Garchi, tanimagan, bilmagan inson undan ko'mak so'rasa unga yordam beradi. Saxiylik fazilati ko'proq ayollarda kuchliroq. Buni bir misol orqali tushuntiramiz. Ayol nafaqat o'zining yaqinlariga, balki o'ziga begona bo'lgan odamlarga ham yaxshilik qiladi. Faraz qilaylikki, qo'shningiz uyingizga kelib ,sizdan pul qarz berishingizni va u bu pulni ikki kunda qaytarishini aytdi. Bunday vaziyatni ko'rgandan keyin, albatta, inson qo'lidan kelgancha yordam berishga harakat qiladi (Agar u insofli bo'lsa). Bugun qo'shningiz boshiga shunday kun tushibdi, ertaga kim ayta oladiki, mening hayotimda bunday kun bo'lmaydi deb. Hayotda hamma narsa bo'lishi mumkin. Ota-onalarimizning bizga berayotgan tarbiyalari, bizni boqish uchun yelib -yugurib harakat qilayotganliklari biz uchun Alloh tomonidan yuborilgan buyuk ne'matdir. Bu ne'mat bizda bor ekan, bu uchun Allohga beminnat shukronalar qilish kerak. Biz ham hayotda faqat o'zimiznigina emas, aksincha jamiyatimizning taraqqiyotini o'ylab ish qilishimiz kerak. Insonlarga qo'limizdan kelgancha yaxshilik qilishimiz kerak, ular bilan yaxshi mumalada bo'lishimiz kerak. Inson vafot etganda o'zidan yaxshi nom qoldirib ketishi kerak. Odamlar uni eslab "U boshqacha edi hammaga yaxshilik qilardi, saxiy inson edi" - , deb aytishsin.

Keying maqol: Hayosiz ayol – tuzsiz ovqat. Ayol jamiyatda ,avvalambor, ona u o'zidagi jamiki yaxshi xislatlari, fazilatlar bilan butun insoniyatga o'rnak bo'lishga arziydi. Ayolda juda ko'p yaxshi fazilatlar mujassam bo'lgan.

Bular ibo, hayo, iffat, or-nomus, g'urur, kamtarlik va boshqalar. Bular orasida shunday fazilatlar borki, ular ayollarning ko'rki, ularni bezab turuvchidir vositadir.

Ayollardagi eng yaxshi xislatlardan biri bu ibo va hayodir. Bu ikki so'z ikkita tushunchani anglatib keladi. Ibo -bu sharm uyalish, tortoiseshell va andisha qilishlikdir. Hayo uyat hissiga yaqin tursa ham, andisha va ibodan ajralib turadi. Hayo ko'pincha go'zallik va nafosat bilan aralashgan bo'ladi. Ayol-Allahning eng buyuk mo'jizasi, tabiatning buyuk ixtirosidir. Ayol hayoli, iboli, iffatli bo'lsagina jamiyat rivojlanadi, taraqqiyotining cho'qqisiga erishadi. Chunki, ayol kelgusi avlodlarni tarbiyalovchi, kamolga yetkazuvchi shaxsdir. Kelajak avlodlarni ma'naviyatli, ma'rifatli, yuksak salohiyatga ega qilib o'stirish, albatta, ayollar zimmasidagi burchdir. Buning uchun ayollar yuqoridagi xislatlarning barchasiga ega bo'lishlari kerak.

Xalqimiz bejiz: "Hayosiz ayol-tuzsiz ovqat", – deb aytmagan. Bu maqolni tahlil qilar ekanmiz, uning zamirida jamiyatimizdagi hayosiz ayollarning tuzsiz ovqatga qiyoslanganini ko'rishimiz mumkin.

Bilamizki, taom tuzsiz bo'lmaydi. Agar taomning tuzi bo'lmasa, uni hech kim iste'mol qilmaydi. Agar u sho'r bo'lsa ham u hech kimga yoqmaydi. Agar ovqatning tuzi me'yorida bo'lsa, hammaga yoqadi va uni odamlar tanovul qiladilar. Shu nuqtayi nazardan bu maqoldan shunday xulosa kelib chiqadiki, ayollarning hayoli va iboli bo'lishi jamiyat uchun foydadir. Ular o'zlarining hayosi va ibosi bilan jamiyatda ajralib turishi kerak.

Navbatdagi maqol: Maning nafsım balodur, yonar o'tga soladur.

Insonda yaxshi xislatlar va fazilatlar bo'lish bilan birga yomon illatlar, xislatlar va hissiyotlar bo'ladi. Zero Oynıng yuzida ham dog'lar bor. Insondagi yomon illatlardan biri bu nafs balosidir. Nafs deganda faqat yeyish, kiyish emas balki, jinoyat, xiyonat, ta'magirlik, poraxo'rlik, qarz olish, jaholat, diyonatsizlik, vijdotsizlik va boshqa illatlarni kiritishimiz mumkin. Nafs balosi ko'p hollarda ayollarda kuchli shakllangan bo'ladi. Ayollar bir narsani ko'rdimi, deylik, biror shirinlikni ko'rdi o'sha zahoti ayol u shirinlikni sotib olishga harakat qiladi. Yoki bozorga borganda biror ko'ylaknımi, poyabzalnımi ko'rib qolganda, albatta, uni xarid qilishga harakat qiladi. Nafs balosiga uchragan odam o'zini boshqarolmay qoladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o'zbek ayollariga xos jihatlar xalq maqollarida ham yorqin aks ettirilib berilgan. Ularda ayollarning mehnatsevarligi, mehribon ona, turmush o'rtog'iga sadoqatli va vafoli yor ekani tasviri ochib berilgan. Ayollarning jamiyatimizda va hayotimizda tutgan o'rni beqiyos ekanligi ta'kidlangan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ma'nolar maxzani. Toshkent, "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Ilmiy nashriyoti, 2001.

2. Dushatova, S. (2022). EVFEMIZM TUSHUNCHASI TAHLILI. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, 1(3), 159-163.
3. Soxibovna, M. G. (2022, August). THE ROLE OF LINVOCULTUREME IN THE STUDY OF NATIONAL AND CULTURAL FEATURES OF SPEECH UNITS. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 3, pp. 48-52).
4. Ganieva, M. S. (2021). Socio-philosophical aspects of the study of the issue of gender and entrepreneurial woman in a new society. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(12), 441-445.
5. Ganieva, M. S. (2021). IN THE SOCIETY OF WOMEN-GIRLS INNOVATION-THE SOCIO-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY. Scientific progress, 2(8), 947-951.
6. Ганиев, Б. С., & Ганиева, М. С. (2020). Семья как важный социальный фактор формирования предпринимательских навыков у молодежи (Опыт Узбекистана). In Проблемы социальной психологии и социальной работы (pp. 25-27).
7. ГАНИЕВ, Б., & Ганиева, М. С. (2019). Религиозно-исламские и духовные корни предпринимательской деятельности в Средней Азии. In ИДЕАЛЫ И ЦЕННОСТИ ИСЛАМА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ XXI ВЕКА (pp. 332-335).
8. Abdumalik o'g'li, O. R. Cultural Comparison of Uzbek and English Language Speech Styles.
9. Yakubova, D. (2022). TEACHING GRAMMAR FOR EFL STUDENTS AND ITS APPROACHES. Involta Scientific Journal, 1(7), 265-268.
10. Dilnozakhon, Y. (2022). TEACHING PRAGMATICS BY EXPRESSING AND GIVING COMPLIMENTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 575-578.
11. Google Vikipediya
12. Ziyonet .uz sayti
13. Saviya .uz sayti